

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati
va uning tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati
haqidagi hisobotni shakllantirish
va taqdim etish bo‘yicha
NIZOM**

1. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalarida (keyingi o‘rinlarda - jamiyat) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va korrupsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishi to‘g‘risidagi hisobdorlikni shakllantirish tartibini belgilaydi.

2. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va rivojlanishi masalalari bo‘yicha hisobtlarni shakllantirish va taqdim etish uchun mas’uliyat jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish Komplayens xizmati mas’ul xodimlari zimmasida bo‘ladi.

Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalarida hisobotni taqdim qilish uchun mas’uliyat tarkibiy bo‘linmalardagi Komplayens xizmati mas’ul xodimlari zimmasida bo‘ladi.

2. Hisobot turlari va uni tuzish davriyligi

3. Jamiyatda quyidagi hisobot turlari nazarda tutiladi:

a) jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi, shu jumladan jamiyatning korrupsiyaga qarshi Dasturi yoki yo‘l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishi bo‘yicha hisobot har chorakda Komplaens xizmati tomonidan mazkur Nizomning 3-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

b) korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturida rejallashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot har chorakda Komplayens xizmati tomonidan mazkur Nizomning 4-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

4. Hisobot muntazam ravishda ushbu Nizomda belgilangan tartibda va muddatlarda, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatidan, shuningdek, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi tadbirlar o‘tkazilganligi yoki yo‘qligidan qat’iy nazar tuziladi.

5. Yilning 4-choragi uchun hisobot tuzilmaydi, uning o‘rniga yillik hisobot tayyorlanadi.

6. Har choraklik va har yillik hisobot jamiyat rahbarlariga kiritilib boriladi. Jamiyatning choraklik umumiylisoboti markaziy apparatidagi Komplayens xizmati tomonidan har chorak yakuni bilan keyingi oyining 10-sanasidan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ko‘rib chiqish uchun kiritib boradi.

7. Jamiyatning yillik hisobotidagi umumiylisobot Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi. Mazkur axborot jamiyatning Komplayens xizmati tomonidan tayyorlanadi.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to‘g‘risida hisobotni shakllantirish tartibi

8. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to‘g‘risidagi hisobot korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini monitoring va nazorat qilish, shuningdek, jamiyatning korrupsiyaga qarshi Dasturi yoki Yo‘l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishini monitoring qilish maqsadida tuziladi.

9. Hisobot har chorakda Komplayens xizmati xududiy mas’ul xodimlari tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 5-sanasidan kechiktirmay tuziladi va jamiyat rahbariga ko‘rib chiqish uchun kiritiladi.

10. Hisobotni shakllantirish qo‘yidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) hisobot davridan keyingi oyning 2-sanasidan kechiktirmay, jamiyatning tarkibiy bo‘linmalaridagi Komplayens xizmatining mas’ul xodimlariga ushbu oyning 5-sanasigacha tegishli rahbarlar tomonidan tasdiqlangan holda mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq hisobot taqdim etishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi;

b) jamiyatning bo‘linmalarini hisoboti jamiyatning Komplayens xizmati mas’ul xodimi tomonidan tuziladi va jamiyatning Komplayens xizmati boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to‘g‘risidagi hisobotning biron-bir bo‘limi bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilmagan taqdirda, tadbirlar amalga oshirilmaganligi sababini ko‘rsatish lozim;

v) hisobotlarga kiritilgan axborot tegishli hujjatlar nusxalari va boshqa ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi kerak;

g) jamiyatning markaziy apparatidagi Komplayens xizmati ushbu Nizomning 2-ilovasida ko'rsatilgan shaklda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to'g'risidagi umumiy hisobotni tuzadi hamda qo'shimcha ravishda unga ushbu Nizomning 1-ilovasidagi shakl bo'yicha tuzilgan hisobotdagi ma'lumotlarni kiritadi.

Hisobotda asosiy axborotni o'zida aks ettirgan qisqacha ma'lumotnomada va takliflar ilova qilinishi lozim. Yillik hisobot o'z ichiga o'tgan yilning xuddi shunday ko'rsatgichlariga ega bo'lgan solishtirma tahlilini ham qamrab oladi.

11. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to'g'risidagi hisobotlar va jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to'g'risidagi umumiy hisobotni tuzishda Komplayens xizmatining tarkibiy bo'linmasi mas'ul xodimlaridan zarur hujjatlar va tushuntirishlarni so'rash va olish huquqiga ega.

12. Jamiyat markaziy apparatidagi Komplayens xizmati korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyati to'g'risidagi umumiy hisobotni va qisqa ma'lumotnomani hisobot davridan keyingi oyning 10-sanasigacha jamiyat rahbariga taqdim etadi.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashga oid davlat dasturlarida rejalshtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi hisobotni shakllantirish tartibi

13. Korrupsiyaga qarshi kurashga oid Davlat dasturida rejalshtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi hisobot ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq tuziladi.

14. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalshtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi hisobot Komplayens xizmati tomonidan jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to'g'risidagi umumiy hisobot bilan bir vaqtida tuziladi.

15. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturida rejalshtirilgan tadbirlarning amalga oshirilganligi to'g'risidagi hisobot rahbar tomonidan ko'rib chiqilgandan keyin Agentlikga yuboriladi.

5. Yakuniy qoidalar

16. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va jamiyatning ichki idoraviy hujjatlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda ushbu Nizom qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga jamiyatning markaziy apparatidagi Komplaens xizmati mas'ul hisoblanadi.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinasi”
aksiyadorlik jamiyatni va uning tarkibiy
bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish
faoliyati haqidagi hisobotni shakllantirish va
taqdim etish bo‘yicha Nizomga 1-ilova

**Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to‘g‘risidagi
HISOBOT**

Bo‘linma nomi:	Ijrochi FIO:
Hisobotdagi ma’lumotlar bo‘yicha masullar FIO:	
Hisobot davri:	
Hisobot taqdim etilgan sa’na:	

T/R	Tadbirlar guruhining nomi	Tadbirlarning nomlari	Bajarish muddati	Mas’ul ijrochilar	Ijro to‘g‘risida belgi	Ijro etilmagan bo‘lsa, ijro etilishi kutilayotgan muddat	Bajarilganlikni tasdiqlash, bajarilmagan bo‘lsa sabablari

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati”
aksiyadorlik jamiyatni va uning tarkibiy
bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish
faoliyati haqidagi hisobotni shakllantirish va
taqdim etish bo‘yicha Nizomga 2-ilova

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to‘g‘risidagi choraklik umumi HISOBOT

- I. Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilganligi to‘g‘risida umumi axborot;
- II. Siyosat va tartib-taomillar;
- III. Xavf-xatarlarni baholash;
- IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib taomillar (manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish; Korrupsiyaga qarshi qoidalarni jamiyat shartnomalariga kiritish; Kontragentlarni tekshirish; Ishga nomzodlarni tekshirish);
- V. Ta’lim va kommunikatsiya;
- VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbazarliklar to‘g‘risida xabarlar;
- VII. Monitoring va nazorat;
- VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralar;
- IX. Xulosalar;
- X. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasি

“Navoiy kon-metallurgiya kombinasi” aksiyadorlik jamiyatiga uning tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizomga 3-ilova

Korrupsiyaga qarshi kurashga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi HISOBOT